

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA MOLIVAVIY BARQARORLIK VA NAZORATNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHI

Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18477649>

2024–2025 yillarda O'zbekistonning bank-moliya tizimi ilk bor Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan kompleks baholashdan (FSAP) o'tkazildi. Ushbu baholash yakunlariga ko'ra bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan hisobotlar e'lon qilindi. Ana shu tavsiyalar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2025 yil oxirida 2025–2028 yillarga mo'ljallangan islohotlar bo'yicha ***"Yo'l xaritasi"***ni ishlab chiqdi va tasdiqladi. Mazkur hujjat bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, milliy bank nazorati tizimini xalqaro standartlarga (jumladan, Bazeli III va MHXS 9) muvofiqlashtirish, banklar barqarorligini mustahkamlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash choralarini o'z ichiga oladi (O'zR MB, 2025).

Bank qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar orqali Markaziy bankning vakolatlari yanada mustahkamlanmoqda (jumladan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy inklyuziya uchun mas'uliyati), shuningdek uning nazorat vakolatlari kengaytirilmoqda. Markaziy bank bank guruhlarini konsolidatsiyalashgan asosda nazorat qilish huquqiga ega bo'ladi; banklarning yirik bitimlari ustidan nazorat joriy etiladi hamda banklar va auditorlarning xatarlar haqida regulyatorga o'z vaqtida axborot berish majburiyati belgilanadi. Yangi banklarni tashkil etish talablari kuchaytiriladi — bozorga faqat ishonchli ishtirokchilarni kiritish maqsadida ularning biznes-rejalari sinchkovlik bilan tahlil qilinadi. Ushbu chora-tadbirlar xalqaro tamoyillarga mos, mustahkam bank nazorati poydevorini shakllantirib, tartibga solishning shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

O'zbekistonda kapital va likvidlik bo'yicha Bazeli III standartlari to'liq joriy etilmoqda. Kapital yetarliligi me'yorlari qayta ko'rib chiqilib, qo'shimcha buferlar (konservatsion, kontrtsiklik va tizimli ahamiyatga ega banklar uchun) joriy etilmoqda hamda kapital sifati bo'yicha talablar kuchaytirilmoqda. Xatarlarni hisoblash metodologiyalari yangilanmoqda.

Shuningdek, Bazeli standartlariga muvofiq qat'iy likvidlik me'yorlari (LCR va NSFR koeffitsiyentlari) joriy etilmoqda. 2026 yildan boshlab Markaziy bank ushbu ko'rsatkichlarning bajarilishini muntazam nazorat qiladi. Bu banklarning barqarorligini xalqaro darajaga olib chiqadi hamda ilg'or nazorat amaliyotlari va bozor intizomini joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Aktivlarni tasniflash va zaxiralashda MHXS 9 (IFRS 9) standartlari joriy etilmoqda. Muammoli kreditlar tushunchasi sezilarli darajada kengaytirilib, endilikda ularga nafaqat muddati o'tgan kreditlar, balki defolt belgilari mavjud bo'lgan kreditlar ham kiritiladi. Bu muammoli ssudalarni erta aniqlash imkonini beradi.

Qarzlarni qayta restrukturizatsiya qilish avtomatik tarzda kredit toifasining yomonlashuviga olib keladi (ilgari berilgan yengilliklar bekor qilinadi). Zaxiralash talablari kuchaytiriladi, kutilayotgan yo'qotishlar asosida (jumladan, mamlakat xatari hisobga olingan holda) minimal zaxira me'yorlari joriy etiladi. Bu banklarga yo'qotishlarni oldindan tan olish imkonini beradi va ularning barqarorligini oshiradi. Natijada bank balanslari yanada shaffof va

ishonchli bo'ladi (garchi qisqa muddatda foyda kamayishi mumkin bo'lsa-da) hamda milliy amaliyot xalqaro standartlarga yaqinlashadi.

Birinchi bor banklar tomonidan asosiy moliyaviy va nazorat ma'lumotlarini (kapital, likvidlik, aktivlar sifati, rentabellik va boshqalar) xalqaro standartlar asosida ommaviy oshkor etish majburiyati joriy etilmoqda. Bu bank sektorining shaffofligini va bozor intizomini oshiradi — investorlar va omonatchilar banklarning barqarorligini xolis baholay oladi, banklar esa o'z ko'rsatkichlari uchun ko'proq mas'uliyat sezadi.

Shu bilan birga, regulyatorga taqdim etiladigan hisobotlar takomillashtiriladi: banklar bank guruhlarini bo'yicha konsolidatsiyalashgan ma'lumotlarni Markaziy bankka taqdim etadi, ma'lumotlar sifati ustidan avtomatlashtirilgan nazorat joriy etiladi, nazorat hisobotlari bank hajmiga mos holda (proporsionallik tamoyili asosida) MHXSga moslashtiriladi. Ushbu choralar muammolarni erta aniqlashga, banklarning mijozlar oldidagi mas'uliyatini oshirishga va tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Islahotlar banklarda korporativ boshqaruvni kuchaytirishga qaratilgan. Shaffoflik talablari joriy etilib, banklar risklarni boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarni va asosiy xatarlarini oshkor etishi shart bo'ladi. Bu aksiyadorlarni xabardor qiladi va ilg'or boshqaruv amaliyotlarini joriy etishni rag'batlantiradi.

Tizimli ahamiyatga ega banklar direktorlar kengashi huzurida risklar bo'yicha qo'mitalar tashkil etishi shart, yirik banklar esa rahbariyat uchun vorislik rejalarini ishlab chiqishi lozim bo'ladi. Ushbu choralar Bazal qo'mitasi tavsiyalari va OECD tamoyillariga mos keladi. Natijada mustaqil direktorlar va maxsus qo'mitalarning roli ortadi, strategik risk boshqaruvi yaxshilanadi, menejment xatolari tufayli yuzaga keladigan muammolar ehtimoli kamayadi va investorlar hamda omonatchilar ishonchi oshadi.

Islahotlarning muhim qismi risk-menejment va ichki nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Yirik banklar ICAAP — kapital yetarliligini ichki baholash jarayonini joriy etadi (Bazalning ikkinchi ustuni doirasidagi yangi amaliyot).

Risklar bo'yicha direktor ishdan bo'shatilganda bu haqda ommaga e'lon qilish talabi kiritiladi. Banklar iqlim xatarlarini hisobga olishi shart bo'ladi, ekologik omillarni inobatga olgan stress-testlar o'tkaziladi. Outsorsing ustidan nazorat kuchaytiriladi: ichki audit tashqi pudratchilarga topshirilgan operatsiyalarni ham tekshirishi shart, yangi reglament banklarning risklar bo'yicha javobgarlikdan qochishiga yo'l qo'ymaydi. Ushbu choralar banklarda xalqaro darajadagi risk-menejment madaniyatini shakllantiradi va uzoq muddatda inqirozlar ehtimolini kamaytiradi.

Markaziy bank riskga yo'naltirilgan nazorat tizimiga o'tmoqda. Nazorat yo'riqnomalari yangilanib, iqlim xatarlari bo'yicha nazorat bloki kiritiladi, banklar bo'yicha gorizontall tahlil amalga oshiriladi. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun "sovish davri" joriy etiladi.

2025–2026 yillarda ADR ma'lumotlarni tahlil qilish tizimi ishga tushiriladi, erta ogohlantirish tizimi (EWS) va tuzatish choralari tizimi (PCA) orqali Markaziy bank me'yorlar buzilishidan oldin choralar ko'ra oladi. Bu nazoratni proaktiv va samarali qiladi hamda bank inqirozlari xavfini kamaytiradi.

Birinchi marta bank guruhlarini ustidan to'liq konsolidatsiyalashgan nazorat joriy etiladi. Kapital yetarliligi, likvidlik va risk limitlari butun guruh darajasida belgilanadi. Bu risklarning nazoratsiz tuzilmalarga o'tishining oldini oladi. Xorijiy regulyatorlar bilan hamkorlik kuchaytiriladi, bu esa transchegaraviy bank guruhlarini ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi.

Muammoli banklarni sog'lomlashtirish (rezolyutsiya) bo'yicha xalqaro standartlarga mos normativ baza yaratiladi. Bail-in mexanizmi, vaqtinchalik "ko'prik banklar", tiklash va rezolyutsiya rejalarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Agar sog'lomlashtirish imkonsiz bo'lsa, banklarni tugatish jarayoni soddalashtiriladi. Omonatlarni kafolatlash tizimi mustahkamlanadi, kompensatsiyalar tez va aniq to'lanadi. Ushbu chora-tadbirlar moliyaviy tizim uchun to'liq xavfsizlik konturini yaratadi va omonatchilar huquqlarini yangi darajada himoya qiladi.

Xulosa

2025–2028 yillarga mo'ljallangan islohotlar ko'lamini va kompleksligi jihatidan mislsiz bo'lib, O'zbekiston bank tizimini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan. Bazel III va MHXS 9 standartlarini joriy etish, riskga asoslangan va konsolidatsiyalashgan nazorat, erta aralashuv mexanizmlari va zamonaviy rezolyutsiya tizimi bank tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

Islohotlar banklarning zarbalarga chidamliligini oshiradi, inqirozlarni erta bosqichda oldini olishga xizmat qiladi, aholi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam moliyaviy poydevor yaratadi.

2024–2025 yillarda O'zbekiston bank-moliya tizimi tubdan yangilanish bosqichiga kirdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan o'tkazilgan FSAP baholashi natijasida bank tizimidagi asosiy kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar berildi. Ushbu tavsiyalar asosida Markaziy bank tomonidan 2025–2028 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Isl ohotlar bank nazoratini xalqaro standartlarga (Bazel III va MHXS 9) moslashtirishga, banklarning kapitali va likvidligini mustahkamlashga, risklarni erta aniqlashga va moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan.